



## CALENDULA OFFICINALIS L. – ISTIQBOLLI MANZARALI- DORIVOR TUR

D.A. Rustamqulova, M.R. Nasriddinova  
Qarshi davlat universiteti, [m.nasriddinova@mail.ru](mailto:m.nasriddinova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada Qarshi sharoitida manzarali o‘simlik sifatida ekiladigan dorivor tur – *Calendula officinalis* L. to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan. Tadqiqot uchun tanlangan turlarning botanik tavsifi, tarqalishi, kimyoviy tarkibi, ahamiyati tahlil qilingan, urug‘ unuvchanligi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** manzarali, dorivor, tabobat, damlama, dorivor preparat.

**Аннотация.** В статье представлена информация о *Calendula officinalis* L. – лекарственном виде, возделываемом как декоративное растение в Каршинском районе. Были проанализированы ботаническое описание, распространение, химический состав и значимость видов, отобранных для исследования, а также изучена всхожесть семян.

**Ключевые слова:** декоративный, лекарственный, медицина, настойка, лекарственный препарат.

**Abstract.** The article presents information about *Calendula officinalis* L., a medicinal species cultivated as an ornamental plant in the Karshi district. The botanical description, distribution, chemical composition and significance of the species selected for the study were analyzed, and seed germination was studied.

**Key words:** decorative, medicinal, medicine, tincture, medicinal preparation.

Manzarali-dorivor turlarni introduksiya qilish orqali hududlarning ekologik barqarorligini oshirish va o‘simlik resurslarining boyligini ta‘minlash mumkin. Hozirgi kunda tibbiyotdagi dori preparatlarining asosini dorivor o‘simliklardan olinadigan xom-ashyo tashkil etadi. Dorivor o‘simliklar xomashyosining inson salomatligiga salbiy ta‘siri yo‘qligi sabab ularga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holatda manzarali va dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish va iqlimlashtirish, hamda ilmiy asoslangan tarzda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [1, 2].

Ilmiy tadqiqotlarimizda ko‘kalamzorlashtirishda keng qo‘llanilayotgan, ham manzaralilik, ham dorivorlik xususiyati muhim ahamiyatli bo‘lgan *Calendula*



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI  
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



*officinalis* L. turining bioekologik xususiyatlarini Qarshi vohasi sharoitida o‘rganish maqsad qilindi.

*C. officinalis* – dorivor tirnoqgul Asteraceae (qoqio‘tdoshlar) oilasiga mansub, bo‘yi 30-60 sm ga yetadigan o‘simlik. Vatani Janubiy Yevropa va O‘rtayer dengizi mamlakatlari. Poyasi sershox. Ildizi o‘q ildiz, sovuqqa chidamli, qurg‘oqchilik sharoitida yaxshi rivojlanadi. Barglari cho‘ziq tuxumsimon yoki lansetsimon, tuk bilan qoplangan, poyaga ketma-ket joylashgan. Gulqo‘rg‘oni murakkab, 3-7 sm diametrli savatcha shaklida, rangi sariq yoki to‘q sariq. Tashqi gultojbarglar katta va yorqin rangli, til shaklida. Ichki gulbarglar mayda, naychasimon shaklda. Mevasi yoyilgan, egilgan yoki halqasimon yong‘oqcha. Urug‘lari sarg‘ish yoki jigarrang [3, 4].

O‘simlik gullarida karotin, efir moylari, azotli shilimshiq moddalar, qatronlar, organik kislotalar, yer ustki qismida kalenden degan achchiq modda, oshlovchi moddalar, tri-terpendiollar va saponinlar, urug‘larida yog‘li moy va bir oz miqdorda alkaloidlar bor.

Dorivor tirnoqgul preparatlari markaziy nerv sistemasini tinchlantirib, qon bosimini pasaytirish, yurak ishiini me‘yoriga keltirish, kasallik tug‘diruvchi bakteriyalarga qarshi ta’sir ko‘rsatib, jigar, taloq, buyrak, me‘da, o‘t yo‘llari kasalliklari, gipertoniya, ateroskleroz, ba’zi yurak kasalliklari, klimaksni davolashda foydalaniladi. Xalq tabobatida siydik haydovchi, balg‘am ko‘chiruvchi va terlatuvchi, badanning dog‘ tushgan joylari, gush kasalligi, mastit (sut bezi yallig‘lanishi) ni davolovchi sifatida qo‘llaniladi [5, 6]. Respublikamizning barcha hududlarida manzarali o‘simlik sifatida ham ekiladi.

Beruniy “Kitob as-Saydana” asarida *C. officinalis* turining dorivorlik xususiyatlari to‘g‘risida quyidagilarni ma’lum qiladi: bu o‘simlik ko‘z kasalliklari – ko‘zning yallig‘lanishi va yorug‘lik sezgirligini kamaytirishni davolashda, qon to‘xtatuvchi vosita sifatida, sharbatidan yaralarni davolashda foydalaniladi. Tomoq og‘rig‘i va anginada tirnoqgul damlamasi bilan tomoqni chayish tavsiya etiladi. Immunitetni oshirish va kasalliklarga bardoshli qilishda tirnoqgul damlamasi davolovchi vosita sifatida qo‘llaniladi [7].

*C. officinalis* urug‘larning unuvchanligini o‘rganish uchun laboratoriya sharoitida urug‘lar Petri kosachasiga 100 donadan 3 takroriylikda turli xil haroratda (18+20°C, 20+22°C, 24+25°C) undirildi. Urug‘larning unishi uchun optimal harorat



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI  
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



18+20°C ekanligi aniqlandi. Urug‘lar 3-4 kundan so‘ng una boshladi va urug‘larning unuvchanligi 88 % ni tashkil etdi (jadval).

Javdal

**O‘simliklar urug‘larining unuvchanlik ko‘rsatkichlari**

| O‘simlik nomi                | Laboratoriya sharoitida |                               |                |
|------------------------------|-------------------------|-------------------------------|----------------|
|                              | harorat, °C             | urug‘ unishi davomiyligi, kun | unuvchanlik, % |
| <i>Calendula officinalis</i> | 18-20                   | 2–8                           | 88             |
|                              | 20-22                   | 3–7                           | 70             |
|                              | 24-25                   | 3–6                           | 70             |

Bahorda dala sharoitida urug‘lar unuvchanligini o‘rganish maqsadida tuproqqa 2-3 sm chuqurlikda ekilgan urug‘lar 2-3 kundan keyin yer yuziga o‘tib chiqib boshladi. Urug‘ po‘sti yer ostida qolib ketdi va urug‘larining unishi yer ostki ekanligi aniqlandi. Unib chiqqan nihollar juda nozik bo‘ladi. Nihollar 4-6 juftdan chinbarg hosil qilgandan keyin, ular ehtiyotkorlik bilan doimiy joyiga ko‘chiriladi.

Tadqiqot natijasidan *C. officinalis* Qarshi vohasi sharoitida muvaffaqiyatli iqlimlashishi va o‘tib rivojlanishini, bu esa uning tabiiy muhitga tez moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘simlik manzarali hamda dorivor xususiyatlari bilan ajralib turadi.

*C. officinalis* manzarali o‘simlik sifatida Qarshi vohasining deyarli barcha hududlarida o‘stiriladi. Shuningdek, bu o‘simliklarning dorivor xomashyolari tabobatda turli kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, *C. officinalis* turining farmakologik ahamiyati yuqori bo‘lib, uning tarkibidagi biologik faol moddalarning turli kasalliklarni davolashda qo‘llanishi ushbu tur resurslarini yanada kengroq o‘rganish va targ‘ib qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, ushbu o‘simlikni ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlar orqali yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish, dorivor o‘simliklar resurslarini boyitishda va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aliyev B.A. Dorivor o‘simliklarning biologiyasi va ekologiyasi. –Toshkent, 2018. – 34-35 b.



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI  
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



2. Smith J.D. Medicinal Plants: Biology and Applications. Cambridge University Press, 2019. – 118-120 p.
3. Флора Узбекистана. Том 6. – Ташкент, 1962. – 577 с.
4. Plants of the World Online (POWO): открытый онлайн атлас-определитель растений. <https://powo.science.kew.org/>
5. Jean M. Bokelmann. 34 - Calendula (*Calendula officinalis*): Flower. Elsevier, 2022. 263-267 p. <https://doi.org/10.1016/B978-0-323-84676-9.00034-9>.
6. Холматов Х.Х., Қосимов А.И. Доривор ўсимликлар. – Тошкент, 1994. – 368 б.
7. Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Т. IV. - Фармакогнозия в медицине (Китаб ас-Сайдана фи-т-тиб(б) //Отв. ред. А.К. Аренде. Исслед., пер., прим. и узк. У.И. Каримова. - Ташкент: Фан, 1974.

